

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov O'zbekistonda <i>Berberis integerrima</i> bunge tabiiy resurslarining zamonaviy holati	132
M.N.Valiyeva, G.S.Mirzayeva, D.M.Musayev O'zbekistonda Reduviidae oilasiga mansub (Heteroptera) yirtqich qandalalarning o'rganilish holati	142
M.B.Zohidova, G.M.Zokirova <i>Xanthogaleruca luteola</i> (Müller, 1766) barg qo'ng'izining mahalliy ekotizimlardagi tarqalishi va avlod almashinuvi.....	148
M.X.Akbarova, Z.A.Yusupova Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrası shonli tarixi.....	153
O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev Shohimardonsoy va So'x daryolarida tarqalgan <i>Schizothorax eurystomus</i> Kessler, 1872 morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyosiy tahlili	160
M.T.Isag'aliyev, G.Yuldashev, B.M.Qo'chqorov, I.M.Aktamov Tipik bo'z tuproqlar ekologik transformatsiyasiga sement sanotining ta'siri	167
D.T.Xo'jayev <i>Nerium oleander</i> L. "Hardy red" navining laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligi	173
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov G'arbiy Farg'ona hududidagi Heteroptera: Pentatomoidea qandalalarining biotsenotik aloqalari va agroekotizimlardagi ahamiyati	177
D.B.Fayziyeva B.M.Sheraliyev Qoratog' va to'palang daryolarida tarqalgan <i>Iskandaria pardalis</i> (Turdakov, 1941) morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyosiy tahlili	184
M.R.Shermatov, D.A.Almatova, B.D.Abdikaxorov <i>Cidaria distinctata</i> Staudinger, 1892 (Lepidoptera: geometridae, larentiinae)ning Farg'ona vodiysida qayd etilishiga oid.....	190
Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov <i>Acyrtosiphon pisum</i> (Harris, 1776) shirasining morfo- ekologik xususiyatlari (Shimoliy Farg'ona misolida)	194
O.T.Sobirov, X.R.Kaxxorova, S.A.Tojimatova, O'.Sh.Turg'unova <i>Lepidosaphes</i> avlodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili	201
F.N.Mingboyev, S.M.Xaydarov, M.V.Obidov Mikrosuvo'tlari uchun ozuqa muhitini tayyorlash texnologiyasi (<i>Ankistrodesmus</i> misolida).....	211
D.R.Botirova, M.V.Obidov, D.R.Egamberdiyeva Evaluating substrate types for enhanced hydroponic strawberry yield and quality.....	216

QISHLOQ XO'JALIGI

G'.Yuldashev, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov Sho'rxoklarning singdirish sig'imi va kationlar tarkibining o'zgarishi	221
B.P.Расулзода, З.А.Джаббаров Взаимоотношение длины междоузлий, число стеблевых узлов и продуктивность колоса у сортов мягкой пшеницы	226
O.X.Sindarov Issiqxona sharoitida turli xususiyatlarga ega plyonkalarining qulupnay navlari barglaridagi biologik o'zgarishlarga ta'siri	232

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, D.X.Yuldasheva Farg'ona viloyatida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari	237
E.G'.Maxkamov Hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni geoekologik jihatdan baholash usullari	246
S.M.Xursanov Surxondaryo viloyatida aholi tashqi migratsiyaning hududiy tarkibi	249
Z.N.Tojjeva, K.B.Omanova Jizzax viloyati mehnat migratsiyasining ba'zi jihatlari	257



UO'K: 911.372.31

JIZZAX VILOYATI MEHNAT MIGRATSIYASINING BA'ZI JIHATLARI

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

SOME ASPECTS OF LABOR MIGRATION IN JIZZAKH REGION

Tojiev Zulfumor Nazarovna¹ ¹O'zbekiston milliy universiteti, geografiya fanlari doktori, professor.Omanova Kamola Botir qizi² ²O'zbekiston milliy universiteti, o'qituvchi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada aholi mexanik harakatining asosiy turlaridan biri bo'lgan mehnat migratsiyasi, uning dolzarbligi, hududiy tarkibi yoritib berilgan. Bunda asosiy e'tibor mehnat migratsiyasining sabablari, hududiy hamda tarmoqlar tarkibiga qaratilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается трудовая миграция, являющаяся одним из основных видов механического движения населения, её актуальность и территориальная структура. При этом основное внимание уделяется причинам трудовой миграции, её территориальному и отраслевому составу.

Abstract

This article examines labor migration, one of the main types of mechanical population movement, its relevance, and territorial structure. The primary focus is on the causes of labor migration, as well as its territorial and sectoral composition.

Kalit so'zlar: Migratsiya, aholi, mehnat migratsiyasi, xorij, mehnat resurslari, tashqi migratsiya, demografik jarayonlar, aholi tarkibi, donor mamlakat, rivojlangan mamlakatlar, migratsiya oqimi.

Ключевые слова: Миграция, население, трудовая миграция, за рубеж, трудовые ресурсы, внешняя миграция, демографические процессы, структура населения, страна-донор, развитые страны, миграционные потоки.

Key words: Migration, population, labor migration, abroad, labor resources, external migration, demographic processes, population structure, donor country, developed countries, migration flows.

KIRISH

Jahonning boshqa mamlakatlari, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar aholi migratsiyasining asosiy qismini aynan mehnat migrantlari tashkil etmoqda. O'z navbatida, mamlakatlarda mehnat migrantlarining geografiyasi uning sohalaridagi rivojlanish holati va ko'lamiga qarab o'zgarib boradi. Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan MDH va Markaziy Osiyoda o'z demografik salohiyati bilan alohida ajralib turadigan O'zbekiston uchun ham xos. Mamlakatda mehnat resurslari etarli, bu esa mehnat migratsiyasining tobora oshib borishini toqazo etadi.

Mehnat migratsiyasi, ya'ni aholining daromad topish va ish qidirish maqsadida ko'chib yurishi zamonaviy dunyoning keng tarqalgan va muhim hodisalaridan biridir. Garchi mehnat migratsiyasi insoniyatga qadimdan xos bo'lsa-da, hozirgi zamon migratsiyasi o'zining ko'lamiga va sifat xususiyatlariga ko'ra butunlay yangi hodisa hisoblanadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aholi migratsiyasini, ayniqsa bugungi globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasini tadqiq qilish muhim hisoblanib, xorijiy tadqiqotchilardan D.M.Tomayeva, N.A.Pruel, L.N.Lipatova, V.N.Gradusova L.P.Kleevlar migratsiyaning umumiy masalalarini o'rganishgan bo'lsa, M.A.Troyanskaya, I.F.Farxadov, M.A.Pituxina uning geografik xususiyatlarini, J.A.Zayonchkovskaya, O.A.Kolesnikova, V.A.Emelyanov, N.G.Gordeev, L.A.Varakina esa mehnat migratsiyasini tadqiq etishgan.

O'zbekistonda ham bir qancha olimlar aholi migratsiyasi xususan mehnat migratsiyasi, uning geografik, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarini o'rgangan. Shular jumlasiga L.P.Maksakova, Z.N.Tojiyeva, Sh.R.Xolmo'minov, D.Raximova kabi tadqiqotchilarni alohida keltirib o'tish o'rinli. Ammo, aholining mehnat migratsiyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar etarli emas. Ayniqsa, bugungi kunda mehnat migrantlarining kun sayin soni va salmog'i oshib borayotganligi bu yo'nalishni yanada chuqurroq o'rganishni toqazo etadi. Shu bilan birga, aholining tabiiy va mexanik harakati natijasida shakllanayotgan savodxonlik, ta'lim, migratsiya, mehnat resurslari bandligi, ishsizlik va ulardan foydalanishning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olishga ustuvor ahamiyat berilmoqda [5].

NATIJA VA MUHOKAMA

Aholining migratsiya jarayonlarini olimlar, tadqiqotchilar o'rganishar ekan, ular nafaqat migratsiya sabablarini, balki mehnat migratsiyasining tashkil etilishining asosiy jihatlarini ham keltirib o'tishgan. Masalan, sotsiolog D.Messi migratsiyaning iqtisodiy tomonlarini tadqiq etar ekan, "migratsiya bozorining kamchiligi emas aksincha, uning o'zgarishi natijasidir" deya fikr bildirgan. Ya'ni migratsiya oqimi ko'proq rejali iqtisodiyot amal qiladigan hududlarda ustun bo'lib, bozor transformatsiyasi sodir bo'layotgan joylarda paydo bo'ladi [1; 287-b.].


D.Messinining fikrlari bilan yondosh holda geodemograf Z.N.Tojiyeva ham O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholi punktlariga ta'sir etuvchi eng muhim sabablardan biri sifatida tashqi mehnat migratsiyasini keltirib o'tgan. "1990-2000 yillari respublika mintaqalari qishloq aholi manzilgozlari va undagi qishloq aholisiga bozor iqtisodiyoti omilining ta'siri katta bo'ldi. Buni avvalo qishloq aholisining qishloq xo'jaligida bandligining biroz bo'lsada kamayishida, boshqa soha va tarmoqlarda aholi bandligining ortishida, aholi o'rtasida ichki va tashqi mehnat migratsiyasining kuchayganligida yaqqol ko'rish mumkin" [6].

Xalqaro integratsiyalashuvning tobora kengayib borayotganligi, hududlarda ayniqsa aholi tug'ilishi baland bo'lgan joylarda mehnat resurslarining ham ko'p ekanligi, ish o'rinlarini bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar mehnat migratsiyasining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xorij olimlari J.Xarris va M.Todaro fikricha, "ortiqcha mehnat resurslari imkoniyati cheklangan, ishlab chiqarish darajalari past bo'lgan mintaqalardan rivojlangan, urbanizatsiyalashgan hududlarga migratsiya qiladi [1; 301-b.].

Rus tadqiqotchisi P.V.Vasilenko esa aholi migratsiyasining xorijiy nazariyalarini o'rganar ekan, ulardagi globallashuv sharoitida jadallashib borayotgan migratsiya jarayonlarining sabablarini shunday izohlaydi: "Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va rivojlanayotgan mamlakatlardagi muammolar zamonaviy migrantlar uchun turtki va tortuvchi omillarni tashkil qiladi" [1].

Mehnat migratsiyasining yuzaga kelishining asosiy sabablari, barqaror ish o'rinlarining yo'qligi, undan keladigan daromadning qoniqtirmasligi, iqtisodiy-ijtimoiy ahvolning yomonligi hamda boshqa qo'shimcha ehtiyojlar (masalan, ko'proq daromadni tez vaqtda topish, undan uy-joy qurishda, mashina olishda, to'ylarni o'tkazishda foydalanish va h.k.)ni sanaladi. Mana shu sabablar aholi mexanik harakatining ijobiy ham salbiy jihati yuzaga keltiradi, ayniqsa tashqi mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlarini aholining moddiy ahvolini yaxshilashga, boshqa hududlar bilan ijtimoiy integratsiyalashuviga, turmush sharoitini oshirishga, davlat byudjetiga valyuta oqimining kirib kelishiga olib keladi.

Uning aks ta'siri esa eng birinchi navbatda demografik ko'rsatkichlarda yaqqol ko'rinadi. Ma'lumki, aholi migratsiyasida ishtirok etuvchi aholining asosiy qismi mehnat yoshidagilar hisoblanadi (16-60 yosh). Aynan mehnat yoshidagi aholining tashqi migratsiyasida ishtirok etishi donor mamlakat yoki hudud uchun ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortib ketishiga, sohalararo barqarorlik va mehnatga nisbatan raqobatning pasayishiga, yosh-jins tarkibning o'zgarishiga, aholi tug'ilishi va nikoh jarayonlariga, oilaviy tarkiblarning o'zgarishiga olib keladi (1-rasm).



1-rasm. Mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy jihatlari.

Manba: Adabiyotlar va tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

O'zbekiston Respublikasida 2020-yil ma'lumotlariga qaraganda, jami 2040,1 ming kishi xorijda ishlayotgan bo'lib, shulardan 992,6 ming kishi rasmiy, 1048 ming nafari esa norasmiy tarzda ketganlardir. Shuningdek, ushbu migrantlarning asosiy qismi Rossiyada 1,5 mln. kishi (jami mehnat migrantlarning 73,5 foiz), Qozog'istonda 240 ming kishi (11,7 foiz), Koreyada 71 ming (3,4 foiz), Turkiyada 43 ming kishi (2,1 foiz) va dunyoning boshqa mamlakatlarida 125 ming kishi yoki jami mehnat migrantlarining 17,2 foiz mehnat faoliyatini amalga oshirgan. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, mehnatga layoqatli aholining 12 foizi xorijda mehnat qilgan. Ushbu migrantlarning Jizzax viloyatidagi hissi 88 ming kishi (respublikamizda 9-o'rin) ni yoki jami mehnat migrantlarining 4,3 foizni tashkil etadi [7; 3; 4.].

Umuman olganda, Jizzax viloyati aholisining tashqi migratsiya harakatlari keyingi yillarda ancha faol bo'lib, ko'chib kelgan aholi soni oshib bormoqda. Birgina viloyatning o'zida xorijdan ko'chib kelgan aholi, 2015-yilda 56 nafardan 2022-yilda 441 kishiga etgan. Xorijga ko'chib ketganlar soni esa aksincha past bo'lib, 2015-yil 25 kishi, 2022-yil 119 kishini tashkil etdi. Hududlarni kuzatsak, eng yuqori ko'chib kelish ko'rsatkichi 2022-yilda Jizzax shahri hamda Mirzacho'l tumani uchun xos bo'lib, xorijga ko'chib ketgan aholi salmog'ining yuqoriligida ham mazkur ikki hudud yetakchi, bu davrda G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari ham ko'chib ketgan aholi sonida faolroq. Biroq, 2015 yilda har ikkala yo'nalish bo'yicha aholi harakati juda sust kechgan. Yuqoridagi hududlar (va Do'stlik tumani ko'chib ketganlar, Paxtakor tumani ko'chib ketganlar)dan tashqari deyarli barcha hududlarda aholining tashqi migratsiya harakati umuman kuzatilmagan yoki sezilarli o'zgarishga ega emas (1-2 nafarni tashkil etgan). Faqatgina, Jizzax shahriga 2015-yilda ko'chib kelgan aholi atiga 2 nafarni tashkil etmoqda (1-jadval).

Shuningdek, mehnat migrantlarini qabul qiluvchi mamlakatlarning asosiy qismi MDH mamlakatlari (Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston) va rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda demografik o'sishi past bo'lgan, mehnat resurslari yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarga Respublika aholisining tashqi mehnat migratsiyasi kuzatilmog'ida.

1-jadval

Jizzax viloyati hududlarining tashqi migratsiya harakatlari

Hududlar	ko'chib kelganlar		ko'chib ketganlar	
	2015-yil	2022-yil	2015-yil	2022-yil
Jizzax viloyati	56	441	25	119
Jizzax shahri	12	148	2	21
Arnasoy	0	10	0	4
Baxmal	1	3	0	5
G'allaorol	0	23	1	18
Sharof Rashidov	0	8	1	18
Do'stlik	13	24	1	7
Zomin	1	4	0	3
Zarbdor	1	16	0	2
Mirzacho'l	26	139	12	19
Zafarobod	0	15	1	5
Paxtakor	0	19	5	1
Forish	2	32	2	14
Yangiobod	0	0	0	2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ma'lumotlariga qaraganda (2023-yil dekabr), O'zbekistonda jami 38,4 ming fuqaro ishga joylashtirilgan bo'lsa, shundan 1958 nafari (10-o'rin) yoki 5,1 foizi xorijiy mamlakatlarda ishga joylashtirilgan. Shundan, Jizzax viloyatda mazkur holatning geografik jihatlarini hisobga oladigan bo'lsak, 1478 nafari (75, 4 foizi) Rossiya Federatsiyasi, 326 nafari (16,6 foizi) Koreya Respublikasi, 111 nafari (5,6 foizi) Buyuk Britaniya, 9 nafari (0,4 foizi) Turkiya, 16 nafari (0,8 foizi) boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

GEOGRAFIYA

Agentlik hisobotiga ko'ra, mehnat migrantlarining xorijdagi ish faoliyati aynan qaysi sohalarda ekanligi ham keltirib o'tilgan bo'lib, mehnat migrantlarining asosiy qismi xorij mamlakatlarida quyidagi ish faoliyati bilan band hisoblanadi:

Rossiya Federatsiyasi hududida – qurilish, transport va logistika, qishloq xo'jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, kommunal va maishiy xizmatlar;

Qozog'iston – qurilish, qishloq xo'jaligi, Janubiy Koreya – og'ir va engil sanoat;

Turkiya va BAA – savdo, umumiy ovqatlanish, ijtimoiy ta'minot (kekxa, nogiron va yosh bolalarga yakka tartibda qarash va parvarishlash);

AQSh va Yevropa – sanoat, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, transport va logistika, ijtimoiy ta'minot sohalari [8].

Bu hodisalarning barchasini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Mamlakatdagi mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishini belgilab olish, uning ko'lamini baholash zarur. Buning uchun eng birinchi navbatda, migratsiyaning umumiy miqdori aholining tarkibi hamda mehnat migratsiyasining yuzaga kelish sabablarini kichik hududlar doirasida tadqiq etish lozim. Shuningdek, aholi migratsiyasi, ayniqsa mehnat migratsiyasida ishtirok etuvchi aholining yosh-jins, ijtimoiy tarkibini tahlil qilgan holda, uning demografik jarayonlarga ta'siri nuqtai nazaridan yuzaga keluvchi muammolarni ham o'rganib borish zarur;

- aksariyat hollarda mehnat migratsiyasi moddiy ehtiyoj bilan bo'layotganligi, donor hududlarda bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lsada, aholi ehtiyojlarini qondira olmaydigan darajadagi ish haqi sababli mehnat migrantlari daromadliroq hududlarga migratsiyani amalga oshirayotganligi bois barqaror ish o'rinlarini yaratish zarurati paydo bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmanov va boshqalar. Demografiya. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2014., 301-b.
2. Абдуллаев В. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб. ст. / Отв. ред. Е.: Ташкент, 2008.
3. Omanova K. Jizzax viloyatining geodemografik rivojlanishi. Mag. Diss. – T.: 2021, ;
4. Omanova K. Berdialiyeva V. The role of migration in the geodemographic development of Jizzakh region. Научные исследования и общественные проблемы. Vol. 1 No. 2 (2023).
5. Tojiyeva, Z., Ibragimov, L. 2021. Labour market and employment in Uzbekistan. In *Geografický časopis / Geographical Journal*, vol. 73, no.4, pp. 359-374. 0016-7193. DOI: <https://doi.org/10.31577/geogrcas.2021.73.4.19>
6. Zulkhumor Tojiyeva, Kamola Omanova, Nodirbek Pardayev, Nizomiddin Jaloliddinov, Bekzod Musayev and Sadridin Khursanov. Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 491, 04004 (2024). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449104004>
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/20/migracy/> «Mehnat migratsiyasi: xavfsiz, tartibli va qonuniy».
8. <http://www.migration.uz-> O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi. <http://www.migration.uz/post/view/153>.
9. www.stat.uz- O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi.